

Kon-geologiya vazirligi Odob-axloq komissiyasining
2025-yildagi faoliyati to'g'risidagi
HISOBOT

Vazirlikning 2024-yil 14-noyabrdagi 144-son buyrug'ingiz bilan vazirlikning "Odob-axloq kodeksi", "Odob-axloq komissiyasi" va uning faoliyatini tartibga soluvchi Nizom tasdiqlangan.

Mazkur ichki me'yoriy hujjatlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 595-son qarori talablariga muvofiq vazirlikning Odob-axloq komissiyasi tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi.

1. Joriy yilning 15-yanvarigacha vazirlikning boshqaruv xodimlari tomonidan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalarni to'ldirilishi ta'minlandi va ular o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilib, natijasi bo'yicha tegishli takliflar berildi.

Jumladan, Kon-geologiya vazirligi ijro apparatining **109 nafar** boshqaruv xodimlari tomonidan to'ldirilgan deklaratsiyalar tahlil qilinganda, **4 nafar** vazirlik xodimi bir-biriga o'zaro yaqin qarindosh ekanligi, **35 nafar** xodimlarning tizimosti korxonalari hamda hamkor va kontragentlarda yaqin qarindoshlari faoliyat yuritayotganligi aniqlandi.

Natijada 35 nafar boshqaruv xodimlardan **25 tasida** (*hamkorlar va kontragentlardagi yaqin qarindoshlari mavjudlik holati hamda Toshkent davlat texnika universiteti va Toshkent moliya institutida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan 2 nafar xodimning faoliyati amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq*) manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligi, **10 nafarida esa ehtimoliy manfaatlar** yuzaga kelishi mumkinligi to'g'risida xulosaga kelindi.

Shu bilan birga, vazirlikning 1 nafar xodimi "Geologiya va geofizika instituti" DMda tajriba orttiruvchi-tadqiqotchi sifatida ishlab kelayotgan holatida **ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi** mavjudligi qayd etildi.

Mazkur holatni oldini olish maqsadida vazirlikning 2025-yil 7-martdagi 29-son buyrug'i qabul qilindi. Unga ko'ra, 11 nafar xodimlarga manfaatlar to'qnashuvini tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik va ichki me'yoriy hujjatlar talablari yetkazildi va ular qat'iy ogohlantirildi hamda 1 nafar xodimning haq to'lanadigan boshqa faoliyati, ya'ni "Geologiya va geofizika instituti" DMdagi ish faoliyati to'htatildi.

Shu bilan birga, ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatlari qayd etilgan 10 nafar xodimlar o'zaro yaqin qarindoshlari bilan bitta obyektida yoki loyihada birgalikda ishlashi bo'yicha cheklov belgilandi.

Bundan tashqari, xaridlar jarayonida ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida vazirlikning 32 nafar xodimlarining yaqin qarindoshlariga tegishli 53 ta tadbirkorlik subyektlari bilan shartnomalar tuzish bo'yicha cheklov belgilandi.

Mazkur sohada amalga oshirilgan ishlar vazirlikning rasmiy veb-saytida yoritilishi ta'minlandi (<https://gov.uz/oz/mingeo/news/view/40329>).

2. Joriy yil davomida jami 30 nafar boshqaruv xodimlari ishga qabul qilingan bo'lib, ular tomonidan **ishga qabul qilinayotganda** ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish shakli (deklaratsiya) to'ldirilishi belgilab qo'yilgan. Mazkur xodimlar tomonidan to'ldirilgan deklaratsiyalar tahlil qilinganda joriy yilning 12-may kuni Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligiga bosh mutaxassisi sifatida qabul qilingan "S.X.A" tadbirkorlik subyektida **4,8 % ulushdori** ekanligi aniqlandi.

Vazirlikning Odob-axloq komissiyasi tomonidan mazkur holat ko'rib chiqildi va O'zbekiston Respublikasining "**Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida**"gi Qonunining 13-moddasida belgilab qo'yilgan cheklovga tushadigan holatni bartaraf qilish chorasini ko'rish bo'yicha takliflar berildi. Natijada ushbu xodim tadbirkorlik subyektidagi o'z ulushidan voz kechdi va manfaatlar to'qnashuvi predmeti bartaraf etildi.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xodimlar o'rtasida keng targ'ibot va tashviqot ishlari tashkil etish hamda mazkur sohada davlatimizda amalga oshirilayotgan ishlarning mazmun-mohiyati keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida Kon-geologiya vazirligi hamda tizim korxonalarida "9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni"ga bag'ishlangan **80 dan** ortiq tadbirlar o'tkazildi.

Xususan, Geologiya fanlari universiteti hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida talabalari o'rtasida "Antikorrupsiya bilimdoni" mavzusida bilimlar bellashuvi musobaqalari o'tkazildi.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida **16 ta** tizim korxonalari tomonidan "**eng yaxshi maqola**" nominatsiyasiga **14 ta**, "**eng yaxshi she'r**" – **22 ta**, "**eng yaxshi rasm**" – **27 ta** va "**eng yaxshi videorolik**" – **13 ta** materiallar taqdim etildi. "**Eng yaxshi...**" nominatsiyalar bo'yicha g'oliblar vazirlik rahbariyati tomonidan taqdirlandi.

Bundan tashqari, joriy yilda vazirlik xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi, ular o'rtasida axloq normalariga zid bo'lgan xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan proflaktik tadbirlar amalga oshirildi.

Kelgusi 2026-yilda davlat xizmatchilarini odob-axloq qoidalariga rioya etilishi holatini tahlil qilish, ularni sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish hamda odob-axloq qoidalarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish rejalashtirilmoqda.